

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

**«5220100»– ta'lif yo'nalishi bo'yicha
nofilologik fanlar fakultetlari talabalari uchun
nemis tili fanidan**

ISHCHI O'QUV DASTURI

(Ushbu o'quv dasturi 17-avgust 2004-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lif Vazirligi vazir o'rinnbosari Sh. Ayupov tomonidan tasdiqlangan namunaviy dasturga muvofiq tuzildi)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

Tasdiqlayman

O'quv ishlari bo'yicha
Prorektor
dots. G'. Bobonazarov
_____ 2006 y.

Tasdiqlayman

O'quv bo'lim boshlig'i
dots. A. Nabihev
«___» _____ 2006 y.

**“Nemis filologiyasi” kafedrasи
o'qituvchisi Sh. U. Sobirovaning
“5220100” – ta'lif yo'nalishi bo'yicha
nofilologik fanlar fakultetlari talabalari uchun
nemis tili fanidan**

ISHCHI DASTURI

Tuzuvchi:

o'qituvchi Sh. Sobirova

Ishchi dastur “Nemis filologiyasi”
kafedrasi (bayon № 1 “__” avgust
2007 yil) Xorijiy tillar fakulteti
uslubiy komissiya tomonidan
(bayon № __ “__” avgust
2007 yil) ko'rib chiqilgan hamda
o'quv jarayonida foydalanishga
tavsiya etilgan

tasdiqlayman

tasdiqlayman

xorijiy tillar fakulteti dekani
dots. Egamberdiyev S. E.

“6” sentyabr 2007 y.

Nemis filologiyasi
kafedrasi mudiri
dots. Xo'jayev G'. X.
“6” sentyabr 2007 y.

1.1. Fan mazmuniga qo'yiladigan malakaviy talablar

Bakalavr «Xorijiy tillar» fanlari bo'yicha:

Xorijiy tillarning tovush tizimi va morfologiyasining ona tili tovush tizimi morfologiyasi bilan farqli va o'xshash tomonlari to'grisida:

- xorijiy tillardagi gap tuzilishi va gapdagi so'zlarning tartibi to'grisida;
- xorijiy tillarda so'zlarning uslubiy qo'llanishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Xorijiy tillarning tovush xususiyatlarini bilishi, nutq tovushlari va so'zlarni to'gri talaffuz qilishni:

xorijiy tillar sintaksisi talablari asosida mazkur tillarda to'g'ri gap tuzishni;

bog'lanishli matn tuzishni;

o'z sohasi doirasida shu tilda fikr ifodalay olishni bilishi kerak.

xorijiy tillar bo'yicha olgan bilimlari va hosil qilgan ko'nikmalari asosida yozma ishlar (referat, tarjima va boshqalar)ni tayyorlay olish;

ilmiy atamalarni tushunish va tildan foydalanish jarayonida qo'llash;

- o'z sohasi bo'yicha xorijiy tildan ilmiy - texnik adabiyotlardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Davrimizning o'ziga xos jihatni hisoblangan ilmiy-texnik taraqqiyot tillararo ilmiy-texnik muloqotning faollashuvini taqozo etmoqda. Tillararo muloqot xorijiy ilmiy-texnik axborotni izlash va o'zlashtirishda alohida ahamiyat kasb etib, bu jarayonda yil sayin fan, texnika va madaniyatning turli soxalari mutaxassislari ishtirok etmoqda. Bizning davrimizda xorijiy tilni ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlarda qollash darajasida egallamagan muxandis yoki iqtisodchini tasavvur qilish qiyin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990 yil 1 mayda chiqarilgan «Mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish va oliy o'quv yurtlariga qabul to'g'risida»gi Qarori, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonun xorijiy tilni mukammal o'rganish va uni o'zi tanlagan mutaxassislik doirasida amaliy qo'llashni takozo etadi.

«Xorijiy til» fanining malakaviy tavsifi qo'yidagilarga asoslanadi:

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ta'limi vazifalarni tarbiyaviy ishlar bilan uyg'unlashtirish lozim, ya'ni, talabalarga mas'uliyat xissi, milliy merosni e'zozlash ruxini tarbiyalash lozim. Xorijiy fiiqarolar bilan xar qanday og'zaki muloqot jarayonida bizning mutaxassis o'zini Mustaqil O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sifatida namoyon qilishi lozim. Buning uchun Respublikaning siyosiy tuzimi, ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va bular haqida xorijlik suhbатdoshiga chet tilida so'zlab berishi lozim. Bo'lajak mutaxassis g'oyaviy- vatanparvarlik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy mavzularda so'zlasha olish ko'nikmalariga ega bolishi lozim.

Yozma ilmiy-texnik muloqotning ahamiyati beqiyosdir. Agar og'zaki muloqot tasodifiy, epizotik xarakterga ega bo'lsa, yozma muloqot xorijiy ilmiy — texnik adabiyotlami o'rganish, o'z mutaxassisligi doirasida zarur ma'lumotlarni izlab topish, turli referatlar, annotatsiyalar yaratishda foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

3. Mutaxassislarimizning xorijiy hamkasblari bilan muloqotga ko'rishishlari mumkinlisini xisobea olib. ularni maxsus mavzulnr bo'vicha xorijiy tiida muloqotga kirishishga o'rganish zarur. Shunday qilib, bayon qilingan vazifalar asosida xorijiy tillar kafedralari oldida qo'yidagi vazifalar turadi: talabalarda tanlangan

mulaxassisliklari doirasida xorijiy tillar bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalar hosil qilish. Bu vazifani quyidagi tarzda yanada keng va aniq bayon qilish mumkin:

- Bo'lajak mutaxassisda ijtimoiy-siyosiy, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi, tas'hki iqtisodiy aloqalar mavzulari bo'yicha og'zaki nutq malakalarini hosil qilish; Bo'lajak mutaxassisni xorijiy manbalardan axborot izlash metodikasi va texnikasi, axborotni ajratib olish va uni yozma shaklda bayon qila olishga o'rgatish; Bo'lajak mutaxassisni keyingi kasbiy ixtisosligiga mos keluvchi tor mutaxassislik mavzusida so'zlashga o'rgatish. Xorijiy tillarni o'rganishga ajratilgan kam miqdordagi o'quv soatlari doirasida bu vazifalarni ta'limni ixtisoslashtirish vositasida amalga oshirish mumkin. Xorijiy tillarni o'rganishning ixtisoslashtirilishi talabaga umuman tilni o'qitish emas, balki bu talabaning bulajak mutaxassisligiga asoslangan xorijiy tilni o'rgatishi nazarda tutadi. Bunda talabaning bulajak mutaxassisligiga xorijiy tilni o'rgatish emas, balki aniq fan va texnika tilining atamalari, leksik- gramatik xususiyatlarini o'rgatish va kelajakda ilmiy-texnik adabiyotlar bilan ishslashning amaliy ko'nikmalarini hosil qilish nazarda tutiladi.

1.2. Xorijiy tillarni o'qitishning maqsad va vazifalari

Xorijiy tillarni o'qitishning maqsadi talabani o'zining kelajak kasbiy faoliyatini og'zaki va yozma muloqot sifatida foydalana olishga tayyorlashdan iborat. Bu talabada turli nutqiy faoliyatni amalga oshirish bilim va ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu esa talabaga kurs tugagandan so'ng quyidagi imkoniyatni beradi:

ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni topish uchun mutaxassislik bo'yicha original adabiyotni o'qish; amaldagi dasturlarda ko'zda tutilgan material xajmida xorijiy tildagi og'zaki muloqotda ishtirop etish. Ushbu amaliy maqsadlarga erishish jarayonida ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi.

Bir xorijiy (ingliz, fransuz yoki nemis) tilni o'rganish talabaning umumta'limiy darajasini ko'tarish, dunyoqarashini kengaytirish, Vatanga sadoqatni tarbiyalash, xalqining milliy an'analari va urf - odatlari, merosini saqlash tarbiyalanishiga xizmat qilish lozim.

1.3.Xorijiy tilni o'qitish bosqichlari va ularga ajratilgan vaqt miqdori

Amaldagi dasturga muvofiq xorijiy tillarni o'qitish kursi nofilologik oliy o'quv yurtlarida uch bosqichga bo'linib, ular orasida uzviy bog'liqlikning bo'lishi zarur. Birinchi bosqich o'z ichiga o'quv yilining 1-semestrdaagi 36 soat auditoriya mashg'uloti va 2-semestrda ham 36-soat auditoriya mashg'ulotini o'z ichiga oladi. Ikkinci bosqich tarkibida 3-4 semestrlardagi 68 soat majburiy mashg'ulotlar kiradi Uchinchi bosqichda 5-6 semestrlardagi 56 soat majburiy mashg'ulotlar nazarda tutilgan. Ta'lim kursi 6-semestrda davlat attestatsiyasi bilan yakunlanadi.

Amaldagi o'quv rejasiga muvofik xorijiy tillarning to'liq kursiga 216 soat ajratilgan.

1.4. Ta'limning I bosqichi mazmuni

Birinchi bosqichda "xorijiy til" faning o'quv tarbiyaviy vazifalari mifik va oliy o'quv yurtidagi talimning uzviyliги asosida xal qilinadi.

Ta'limning birinchi bosqich vazifalari

-xorijiy tilni o'rta maktabda o'rganish davomida egallangan asosiy bilim ko'nikmalarini mustaxkamlash.

- talablarning nofelologik oliy o'quv yurtlarida o'qitishning xususiyatlarini o'zlashtirish (ya'ni xorijiy bilim o'rta maktab uslubiyatidan oily o'quv yurti metodikasiga o'tish)

nutqiy faoliyatning quyidagi ko'nikmalarini takomillashtirish;

auditoriya mustaqil (auditoriyadan tashqari) mutolaq qilish, og'zaki nutq,

(bosqich o'quv vazifalari doirasida so'zlash, eshitish va yozish);

- xorijiy til bo'yicha mustaqil ishlashning eng sodda ko'nikmalarini singdirish.

O'quv faoliyat mazmuni:

auditoriyada o'rganilayotgan tilda matn ustida ishlash, o'qish texniksini sayqallash uchun matnni ovoz chiqarib o'qish va og'zaki tarjirna qilib borish (o'qilgan matinni nazorat qilish uchun); matnni ovoz chiqarmay o'qish va uning qisqacha mazmunini ona tili yoki xorijiy tilda bayon qilish;

o'rganilayotgan matn bo'yicha nazorat mashqlari (fonetik, leksik, so'z yasash va grammatikani)ni bajarish;

gapishtish va eshitishni mashq qilish, bevosita muloqotda va foyoyozuvda nutqni tushunish (o'qituvchi, talabalar); gapishtish va eshitish o'rganilayotgan asosiy dars yoki o'qilgan adabiyot, maqola mazmuni bilan solishtiriladi;

xar bir betning xajmi 1800-2000 bosma belgisi bolgan xajmdagi 1-2 bet matnni xافتасига mustaqil xolda auditoriyadan tashqari o'qish va uni keyinchalik qisqa axborot, muxokama yoki matndan tanlangan o'rirlami tarjima qilish shaklida nazorat qilish.

O'quv materialining xarakteri:

auditoriya o'quv mashg'ulotlarida mutolaaga o'rgatish uchun o'rganilayotgan tilda aniq mavzu va tugal mazmunini matnlardan foydalaniladi.

Bu matnlar talabalarga leksik minimumni o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga so'z yasash va grammatik minimum ham nazarda tutiladi. Matnlar tegishli matn oldi mashqlarga ega bo'lishi kerak. CTzbekiston Respublikasi Mustakilligi e'lon qilinganligi munosabati bilan ta'limning birinchi bosqichida quyidagi mavzular tavsiya qilinadi: «Mustaqil Ozbekiston», «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi», «O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim», «Oliy o'quv yurti», «Ozbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati», «Atrof-muxitni muxofaza qilish», «O'rganilayotgan til mamlakatlari», «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari» va boshqalar.

- auditoriya mashg'ulotlarida axborot -ma'muriy materialini so'rash va eshitishga o'rgatish paytida motivatsiya va vaziyatlilikni taminlash uchun

adabiyotlardan olingen maqolalar va ilmi-ommabop matnlardan foydalaniladi. Mazkur maqolalarning mazmuni so'zlashuv mavzulari, ya'ni plyonkaga yozilgan va o'qituvchilar talabalarining monologik va dialogik nutqlari motivatsiyasining asosi xisoblanadi. Bu materiallardan talabalarni eshitishga o'rgatishda foydalaniladi;

- mustaqil auditoriyadan tashqari mutolaq uchun davriy matbuotning yillik va boshqa nashrlari tavsiya etiladi. Uy mutolaasi maqolalarining mavzusi o'quv auditoriya mashg'ulotlarida foydalaniladigan asosiy matnlar mavzusiga mos kelishi lozim.

1.5. Ta'limning ikkinchi bosqichi mazmuni

Ta'limning ikkinchi bosqichida «Xorijiy til» fanining o'quv-tarbiyaviy vazifalari nofiologik oliv o'quv yurtida xorijiy tilni o'qitish xususiyatlariga bog'lik metodik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Ta'limning ikkinchi bosqichi vazifalari:

Ilmiy texnik va ilmiy-ommabop matnlarni ularda mujassam axborotni to'liq va aniq tushunish (urganish mutolaasi) va ularning mazmuni bilan tanishish (tanishish mutolaasi) maqsadida o'qishga o'rgatish:

- gapishtish va eshitish, shu bilan birga bosqichning (o'quv vazifalaridoirasida) yozuv ko'nikmalarini takomillashtirish;
- xorijiy tilni amaliy qo'llash uchun zarur bo'lgan faoliyat turlarini
- egallash uchun lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish (matn ma'nosini o'zlashtirish; nutqning asosiy g'oyasini ajratib olish; asosiy va ikkinchi darajali axborotni ajratish; ilmiy-texnik matnni yozma tarjima qilish;
- matn rejasi va mavzu bo'yicha ma'ruza rejasini tuzish);
- oliv o'quv yurti (fakultet)ning keng yo'nalishi bo'yicha original ilmiy-texnik matnlar ustida talabaning mustaqil ishslash ko'nikmalarini takomillashtirish.

O'quv faoliyatining mazmuni:

auditoriyada o'rganilayotgan tildagi matn bilan ishslash: matnni ovoz chiqarib o'qish (o'qish texnikasini takomillashtirish); matnni og'zaki tarjima qilish (tushunishni nazorat qilish); matnni ovoz chiqarmay o'qish va mazmunini ona till yoki xorijiy tilda og'zaki bayon qilish; matnni o'rganish maqsadida o'qish; matnni tushunishga xalal beruvchi til xodisalarini tahlil qilish; matnning ma'naviy mazmunini tahlil qilish va yangiliklar elementlari, asosiy ikkinchi darajali axborotlarni aniqlash; tarkibida muxim axborot mavjud bo'lgan matn parchalarini yozma tarjima qilish; o'rganilayotgan matn bo'yicha nazorat mashqlari (fonetik, leksik, so'z yasash, grammatik, 15-20 minut ichida matn asosida 500-600 bosma belgi xajmida yozma tarjima);

auditoriya mashg'ulotlarida gapishtish va eshitish; matnga qaramay fonoyozuvda 1-3 marta tinglangan matnning umumiy mazmuni yoki qismini so'zlash;

ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirilgan sharoitda (masalan, suhbat motivini avtomobil, uning konstruktsiyasi, qismlar va kesimlar tasviri ta'minlaydi) gapishtish va eshitish ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha

mashg'ulotlar olib borish; o'qilgan va o'rganilgan matn bo'yicha xabar rejasini tuzish va xabarni tayyorlash; ta'limning birinchi bosqichining ijtimoiy-siyosiy mavzularini har bir mavzu bo'yicha og'zaki xabar yoki suhbat shaklida takrorlash;

- har haftada shartli xajmi 1500-2000 bosma belgidan iborat 2-3bet matnni mustaqil auditoriyadan tashqari o'qitish (2-3 semestrlarda 150-200 ming bosma belgidan iborat matn).

O'quv materialining xarakteri:

o'quv mashg'ulotlarida tanishtirish va o'rganish mutolaasini o'rgatish uchun mavjud darslik va o'quv qo'llanmalari yoki kafedra o'qituvchilari tayyorlagan qollanmalar (UMK qaroriga ko'ra) matnlardan foydalaniladi. Darsliklaming asosiy matnlari talabalarning grammatik, leksik va so'z yasash minimumini o'zlashtirishga kumaklashuvchi matn oldi va matndan keyingi mashqlar bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Auditoriya mashg'ulotlarida

foydalanimadigan original matnlari matndagi savollar bo'yicha tayyorgarligi bo'lмаган о'кувчига молжалланган о'кув - оммабоп адабиётлардан танланган бо'лиши лозим. Бундай матнлар bulajak mutaxassis yoki o'quvchining dunyoqarashi va eruditsiyasini kengaytirish uchun xizmat qilishi, axborot bilan ta'minlashi va sezilarli darajada maxsus fanlarni o'rganish bilan bog'liq qiyinchiliklarni kamaytirishi лозим; mavzuviy о'кув матнлари олий о'кув yurtida mutaxassislar tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini uzida aks ettirishi лозим.

gapishtishga o'rgatish uchun ishlatiladigan о'кув materiallari so'zlashuv mazmunini ifodalovchi dastlabki axborotlarni o'zida mujassam etishi лозим; gapishtishga o'rgatish uchun darslarning asosiy matnлари va ularning fonoyozuvlari, «Og'zaki nutq ko'nikmalarini o'stirishi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga uslubiy ko'rsatmalar» va nashr rejasi bo'yicha yaratilgan boshqa materiallardan foydalanish mumkin.

- auditoriyadan tashqari mustaqil mutolaas uchun , mavjud о'кув qullanmalari, o'qish kitoblari shu bilan birga kafedra o'qituvchilari tayyorlangan о'кув qo'llanmalari va adabiyotlaridan foydalanish mumkin; uy mutolaasi uchun matn tanlash original о'кув va ilmiy - оммабоп адабиётдан foydalanish zarur.

1.6. Ta'limning uchinchi bosqichi mazmuni.

Ta'limning uchinchi bosqichi xususiyatlari shundan iboratki, bu bosqichda kasbiy faoliyatning boshqa turlariga o'rgatish va xorijiy til bo'yicha shu paytgacha olgan bilimlari, hosil qilgan ko'nikmalarini amalda qo'llashga o'rgatiladi. (5-6 semestrlar).

Ta'limning uchinchi bosqichi vazifalari:

tanishuv va o'rganish mutolaasi ko'nikmalarini takomillashtirish, axborot izlashni o'rgatish (mutaxassislik bo'yicha ilmiy-texnik jurnallar tavsifi), shu bilan birga nazardan o'tkazish va izlash mutolaasiga o'urgatish; ta'limning 2-bosqichida xorijiy til bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarni qo'llagan holda kasbiy faoliyatning turlariga o'rgatish; annotatsiya va referatlarga o'rgatish mutaxassislik bo'yicha o'qilgan xorijiy adabiyotlar asosida ma'ruza va sharxlar taylorlashga o'rgatish:

- ijtimoiy-siyosiy va kasbiy mavzu asosida gapishtish va eshitish ko'nikmalarini takomillashtirish;

-axborot izlash va yozma tarjima, annotatsiyalash va referat taylorlash kcTnikmalarini takomillashtirish.

O'quv faoliyatining mazmuni:

- auditoriyada o'rganilayotgan tildagi ilmiy-texnik matn ustida ishslash; matnni ovoz chiqarib cTqish va og'zaki tarjima; tanishuv, o'rganish, nazardan o'tkazish mutolaasi, о'кув materiallarini izlash mutolaasi; 20-30 minut mobaynida 1200 bosma belgi xajmidagi matn parchasini yozma tarjima qilish va bunda maxsus soha lug'ati va ma'lumotnomadan foydalanish; o'qituvchi rahbarligida mutaxassislik bo'yicha original matnni annotatsiyalash va referat yozish;

-auditoriya mashg'ulotlarida gapishtish va eshitish; o'tilgan ijtimoiy-siyosiy mavzularni takrorlash; mutaxassislik bo'yicha o'qilgan material bo'yicha axborot bilan

chiqish; o'rganilayotgan tilda o'qilganlar bo'yicha suxbat va muxokama (ta'limi o'yinlar);

-xaftasiga xar bir betning shartli xajmi 1500 bosma belgi bolgan 3 bet matnni auditoriyadan tashqari mustaqil o'qish.

O'quv materiallarining xarakteri:

- o'quv mashg'ulotlarida mutaxassislik bo'yicha ilmiy-texnik matn ustida ishslash uchun (tanishtiruv, o'rganish, izlash va nazardan o'tkazish mutolaasi yozma tarjimalar, annotatsiyalash va referat yozish) xorijiy ilmiy-texnik jurnallar maqolalari, simpozium va konferentsiyalarning materiallari, shu bilan birga texnik xujjatlar (foydalanish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomalar, maxsulot pasporti va x.k).

1.7. Yozuv.

Yozuvlik o'rgatishning vazifasi butun davr mobaynida o'quv vazifalarini bajarish uchun qo'shimchi vosita sifatida foydalanishdan iborat

Yozuvni o'rganganlik talablari tegishli o'quv vazifalarini boshqarishda aktiv minimum tarkibaga kiruvchi yozuvlar, so'z birikmalarini ingliz, fransuz, nemis tillaridan to'g'ri yoza olish;

O'qilgan matnning mazmunini qisqacha yozma ravishda bayon qiiish. O'quv materiali o'rganilgan matnlar va nutq namunalarini o⁴z ichiga oladi.

1.8. Nemis tili bo'yicha so'z yasash va grammatik minimum

Ta'limning birinchi bosqichi.

So'z yasash minimumi. Ushbu bosqichda talaba uchun noma'lum bo'lgan sodda va murakkab yasama so'zlarning ma'nosini mustaqil uzlashtira olishni rivojlantirish nazarda tutiladi. Quyidagi so'z yasash modellarini o'zlashtirish lozim; ver+SV+er-Verbrancher(m), Verstaker (m), SA+keit-Sehwierigkeit (f), SA_e-Warme (f), SN+LOS-restlos, SV+ung-Losung (f), un+Saunmoglich, SN+SN=Wasserstoff (m).

So'z yasashning quyidagi modellar ham o'zlashtirilishi lozim; SV+sam=wirksam, SN+S+SN-Arbeitsgang, ein+sv-einsetzen, SV+Bar-nutsbar, Grammatik minimum (o'qish). Birinchi bosqichda mazkur dasturning boshlovchilar uchun mo'ljallangan bo'limida korsatilgan grammatik ko'nikmalar va grammatik xodisalar bo'yicha bilimlarini sayqallash nazarda tutiladi. O'rta maktab kursida o'quvchilarga tanish bo'lgan xodisalar oliy o'quv kursida vazifaviy yo'nalishga ega bo'ladi. Shuning uchun marker belgisi bilan muayyan grammatik xodisalar ajratilishi lozim. Tegishli shakllangan maxsus o'quv harakatlari va operatsiyalari.

Birinchi bosqichda maktab ko'rsiga qo'shimcha o'qitiladigan grammatik minimum tarkibiga ergash gaplar shu jumladan bog'lovchisiz ergashgan bog'lovchili va bog'lovchisiz bog'lanish belgilari, ajratilgan gaplar, shaxsli fe'llar ma'nolari va belgilari kiradi. Bular: Prasens, Ipnperfekt, Futurum. Plusguamperfekt.

Grammatik minimum (gapishtirish). Sodda darak (tasdiq va inkor) gaplar, savollarning asosiy turlari, shaxsli va shaxssiz gaplar, konnen, mussen, sollen, wollen, mogen kabi modal fe'llarni takrorlash nazarda tutiladi.

Mazkur grammatik tuzilmalar nutqda avtomatizm darajasida bajarilishi va eshitish tushunilishi lozim.

Fikrni ifodalash va eshitib tushunish uchun talaba shu bilan birga turli artikllar, otlarning son shakllari, otlarning grammatik munosabatlarini predlogli va

predlogsiz ifodalash, sifat va ravishning qiyosiy darajasi, tartib sonlar, kishilik va egalik olmoshlari shakllari, Prasens, Imperfekt, Perfekt, Futurm, Aktiv fe'l shakllari kabi aniqlovchilarni taniy olish va qo'llay olishi lozim.

Ta'limning ikkinchi bosqichi.

So'z yasash minimumni. Talaba quyidagi asosiy so'z yasash modellarini o'zlashtirishi va ular asosida notanish yasama va murakkab so'zlarning konuniy ma'nolarini tushunishi lozim: über+SN-Ubertemperatur (f), vor+SN-Vorstufe (f), nach +SN-Nacharbeit (f), ab+SN-Abvarm (f), SA+ sehaft-Eigenschaft (f), er+SN (erzielen), ver+SV (verarbeiten), er+SA (erleichtern), B+SN+ig (beseitigen), durch+SV (Durchföhren), ver+SA+ig (verunreinigen), um XSV (umlaufen), zusammen+SV (Zusammenfallen), zer+SN (zersplittern), wieder+SN (Wiedergeben), entrempt (entwickeln), (empfangen), SV+sam (bedentsam), SN+fest (sanrefest), SV+formig (ringformig), SN+Sicher (berticbssicher), SV+Wert (wunschens wert), SN+ahnlich (wasserähnlich), SN+dich+(luftdicht).

Grammatik minimum (o'qish). Ikkinchi bosqichda grammatik mimumumga quyidagi grammatik shakllarning belgi va ma'nolari kiradi. 1 va 2 aktiv va passiv infinitive; bog'liq infinitiv guruh, uning gapdag'i o'rni; tarjima tartibi; modal fe'li infinitiv va lassen fe'li bilan qollanishi; um, Statt, ohne boglovchilar; haben+zu+infinitiv 1, sein+zu+infinitiv 1 modal konstruktsiyalarining o'ziga xos belgilari, ularning tarjimasi va ularga sinonim bo'lgan leksik-grammatik vositalar; yoyiq aniqlovchining belgilari, gapda uni aniqlash; aniqlovchi otlar; (nartatsin bilan ifodalangan sodda va yoyiq, oldin keluvchi yuklama bilan, sodda (prezens, preterit) va murakkab (perfekt, plyuskvam perfekt) konyunktiv fe'l shakllari.

Grammatik minimum (so'zlash). Asosan birinchi bosqich uchun ko'rsatilgan material, shu bilan birga ergash gaplar (to'ldiruvchi aniqlovchi xol va istak maylidagi shart ergash gaplar) majxul nisbatagini Präsens, Imperfekt, va Infinitiv xol vazifasida, I- sifatdoshning aniqlovchi va xol vazifikasi; bog'lovchili ergash gaplar

Ta'limning 3- bosqichi.

So'z yasash minimumni. 1 va 2 bosqichdan ko'rsatilgan minimumga qo'shimcha ravishda talaba o'rganilgan soxa tili, asosan, atamashunosligi uchun xos bo'lgan so'z yasovchi morfema va modellarni o'zlashtirishi lozim

Grammatik minimum 1- 2- bosqichlarda xosil bo'lgan ko'nikmalarni takomillashtirish, shu bilan birga matn bog'lanishining grammatik va simantik vositalari bilan tanishtirish nazarda tutiladi

1.9. Xorijiy tilni o'rganishni boshlovchi talabalarni o qitishni xususiyatlari

Ko'p talabalar turli sabablarga ko'ra xorijiy tilni oliy o'quv yurtiga kirdi, o'rgana boshlaydilar. Xorijiy tillar bo'yicha amaldagi dasturlarga ko'ra bunday talabalar uchun maxsus guruhrilar tuzilib, ularga qo'shimcha taiimning dastlabgi bosqichi nazarda tutilgan 68 soatga mo'ljalangan ta'limning dastlabgi bosqich vazifikasi boshlovchilar guruhrilari ta'limning birinchi bosqichiga tayyorlashdan iborat. Talabalaming katta qismi mazkur guruhga tayyorlov bo'limidan o'tishini hisobga olgan xolda xorijiy tillar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish alovida axamiyat kasb etadi. Yetarli saviyada tashkil etilgan mashg'ulotlar boshlovchilar guruhini 1 kursdayok tugatish imkonini beradi.

Shuning uchun tayyorlov bo'limlarida o'qitish birinchi kunlardanok boshlang'ich bosqich dasturi bo'yicha tashkil etilishi lozim.

Boshlang'ich bosqich vazifalar:

talabalarni o'quv matnlarini lug'atsiz o'qish va tushunishga o'rgatish;
talabalarni adaptatsiyalashtirilgan matnlarni lug'at bilan o'qish va tushunishga o'rgatish.

- talabalarni o'quv materiali asosida ko'rilgan iboralarni eshitib tushunishga o'rgatish;
- talabalarni savol berish, savollarga javob berish va qisqa chiqishlarga tayyorlash.

O'quv materialining tavsifi:

-ta'limning I bosqichi mavzulari bo'yicha fonetik, leksik va grammatik mashqlar bilan boyitilgan (800-1000 bosma belgi) soddalashtirilgan matnlar.

- talabalar hayoti va o'qishi bilan bog'lik bo'lган monologik va diologik nutqlar uchun materiallar.

O'qish mezonlari:

o'rganilgan til tovushlarini avtomatizm darajasida talaffuz qila olish;

barcha xarf-tofosh mosligini avtomatizm darajasida bilish;

pauza me'yorlari va jumlaning oxangdorlilik buyog'iga rioya qilish xolda o'qish texnikasini egallah;

500 so'z va so'z birikmasidan iborat leksik minimum, shu bilan birga amaldagi dasturga muvofik soz yasash va grammatik minimumga ega bo'lish.

2. O'qiganlik mezonlari va o'qilgan materialni o'zlashtirishning nazorat

Shakllari

2.1. Ta'limning birinchi bosqichi

Ta'limning birinchi bosqichi oxirida o'qiganlik mezoni:

leksik minimum mактабда о'рганилганлари bilan birga 800-1000 so'z va so'z birikmalarini tashkil qilish lozim. Bu miqdorga potentsial so'z boyligi (baynalminal so'zlar, o'rganilgan so'z yasash modellari asosidagi yasama va murakkab so'zlar) kirmaydi;

ijtimoiy-siyosiy matnlarni o'qish va to'la mazmunini tushuna olish (minimumga 180-200 bosma belgini o'qish tezligida lug'at yordamida 45 minut ichida 1000-1200 bosma belgisini o'qish) va umumiyl mazmuniy tushuncha olish (minutiga 440-450 bosma belgini o'qish, lug'atsiz 3-4 notanish so'z bo'lган xolda 2000 bosma belgili matn mazmunini tushunish);

bevosita muloqot va fono yozuv vositasida o'рганилган ijtimoiy-siyosiy mavzu bo'yicha nutqni tushunish (minutiga 150-200 bug'in talaffuzi tezligida 3 minutga ovoz eshittirilishi);

qisqa axborot bilan chiqish va o'tilgan mavzu bo'yicha dialog olib borish (minutiga 100-120 so'z tezligida 5-6 ta jumla aytish);

- zarur so'z yasash va grammatik minimumini egallah.

O'tilgan materialni o'zlashtirishning nazorat shakllari:

o'tilgan material bo'yicha muntazam individual va frontal so'rov, yozma va og'zaki nazorat mashqlari va mazmuniy tugal matn parchalarining kichik yozma tarjimalari (200-250 bosma belgi)ni bajarish; semestr uchun test va yozma ishlarni bajarish (o'tkazish vaqtiga va bu ishlarning mazmuni kafedranirig ish dasturi bilan tasdiqlanadi); xar oyda uy mutolaasini nazorat qilish (qisqa axborot yoki o'rganilayotgan tilda kilgan materialning maxokamasi, tanlanma tarjimalari), o'quv guruhi uchun oyda bir, ikki soatlik mashg'ulot; semestr so'ngida yakuniy reyting (karzdor bolmagan, yetarli ball olgan talabalar ijobiy baholanadi, qolganlari semestr davomida turli sabablar bilan tanishtirilmagan materiallarni topshiradilar).

2.2. Ta'limning II bosqichi

Ta'limning ikkinchi bosqichi oxiriga o'zlashtirish mezonlari leksik minimum mutaxassislik bo'yicha umumtexnik leksika bilan birga 2000 so'z va so'z birikmasini tashkil qilish lozim; So'z yasash va grammatik minimumni o'zlashtirish; otilgan mavzular bo'yicha ijtimoiy-siyosiy adabiyot va original ilmiyotexnik va ilmiy ommabop adabiyotlarni (keng soxa buyicha) - o'qish va tushunish (minutiga 300-360 bosma belgi tezligida 1 akademik soatda 1300-1600 bosma belgidan iborat matnni o'rganish mutolaasi; minutiga 500-600 bosma belgi tezligida 2500-3000 bosma belgidan iborat matnni tanishuv mutolaasi va matnning 75%ni tushunish); -800-1000 ta so'z va so'z birikmasidan iborat faol leksik minimum ko'magida talaba 5% gacha notanish so'z bo'lgan matn yoki fonoyozuvni bevosita muloqot yoki tinglab tushunishi lozim (4 minutgacha fonoyozuv, minutiga 180-200 so'z-oliy o'quv yurti profili bo'yicha o'tilgan ijtimoiy-siyosiy mavzu asosida); - o'rganilgan material bo'yicha axboroi tayyorlay olish (minuliga 100 so'z tezligida, taxminan 6-8 ta jumla tuzish va tanlangan yoki o'qilgan material muxokamasida ishtiroy etish (so'zlash xajmi - 15-18 jumla)); - o'rganilayotgan til bo'yicha bilimlarni qo'llagan xolda amaliy faoliyatning oddiy ko'nikmalariga ega bo'lismi (15-20 minut davomida 500 bosma belgi xajmdagi matnni yozma tarjima qilish, abzats va matn asosida matnning mazmunini o'zlashtirish, yangi unsurlarni ajratib olish, asosiyligi, ikkinchi darajali vaortiqcha axborotni farqlash).

O'tilgan materialni o'zlashtirish nazorat qilish shaklari:

joriy nazorat o'qilgan material bo'yicha muntazam individual va frontal so'rov, yozma va og'zaki nazorat mashqlari va nazorat yozma tarjimalarini bajarish (15-20 minut davomida 500 bosma belgi); oraliq nazorat: test topshiriqlarini va semestr uchun yozma ishlarni bajarish (nazorat ishlarini o'tkazish vaqtiga va mazmuni kafedraning UMK tomonidan tasdiqlanadi); -oylik nazorat: muhim axborot ifodalangan matn parchasini yozma (qisqa) tarjima qilish, mustaqil auditoriyadan tashqari o'qish uchun matnlar annotatsiyasi va referatlari (o'quv guruhi uchun moljallangan 1 ta ikki soatlik dars);

- yakuniy nazorat: semestr oxiridagi sinov talabalardan semestr davomidagi qarzdorlikni so'rash tarzida o'tkaziladi; Qarzdor bo'limgan talabalar sinovdan bevosita o'tkaziladi.

2.3. Ta'limning uchinchi bosqichi

Ta'limning uchinchi bosqichi oxiriga o'zlashtirish mezonlari:

- umumiy leksik minimum 2000 tadan kam bo'limgan so'z va so'z birikmali, shu jamladan, so'zlashish uchun 1000 ta aktiv so'z va so'z birikmasidan iborat bo'lishi lozim;

-o'qishning barcha turlarini egallash; lug'at yordamida 1 akademik soat davomida 1600dan kam bo'limgan bosma belgini o'rganish mutolaasi (o'qish tezligi taxminan, minutiga 300-400 bosma belgi); minutiga 500-600 bosma belgi tezligida tanishuv mutolaasi (matn xajmi 3000 bosma belgi), minutiga 1000 bosma belgi tezligida ko'z yugurtish;

xorijiy ilmiy-texnik manbalardan axborot izlab olish va uni og'zaki (ma'ruza, axborot) va yozma (tarjima, annotatsiya, referat) shaklda bera olish; axborot bilan chiqo olish, maxsus mavzu bo'yicha avval o'qilgan adabiyot bo'yicha suxbat va muxokamada ishtirop etish; o'tilgan ijtimoiy -siyosiy mavzu bo'yicha o'rganilgan tilda axborot tayyorla olish.

O'tilgan materialni o'zlashtirishni nazorat qilish shakllari:

yozma tarjima bo'yicha individual mashqlarning bajarilishi, ilmiy-texnik maqolalar annotatsiyasi va mutaxassislik bo'yicha texnik xujjatchilikni tekshirish;

tarmoq lug'atlaridan foydalangan holda auditoriyada 30 minutda 100 bosma belgi hammada yozma tarjima bajarish (oyda bir marta);

- axborotlar bilan tanishish va ijtimoiy-siyosiy, mutaxassislik mavzulari bo'yicha suhbatlarda qatnashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmani tekshirish maqsadida semestrda 2 marta guruhda nazorat m ashg'uloti o'tkazish.

2.4. Joriy va yakuniy nazorat

Joriy nazorat ayrim darslarda o'tkazilgani kabi mashg'ulotlar tsikli to'gagandan so'ng ham o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat semestr yakuni yoki o'quv yili tugallanishiga bag'ishlanib, turli shakllarda o'tkazilib, tarkibiga nazorat ishlari ham kiradi. (sirtqi talabalar uchun semestrda 1 tadan kam bo'mmagan nazorat ish). Har bir semestr sinov bilan oliy o'quv yurti kursi esa Davlat attestatsiyasi bilan yakunlanadi.

Ingliz, nemis, fransuz tillari bo'yicha sinovlar I,II,III,IV,V semestrlar so'nggida o'tkaziladi, VI semestr yakunida esa - Davlat attestatsiyasi o'tkaziladi. Talaba joriy o'zlashtirishi asosida semestr sinovlaridan o'tadi.

Attestatsiyalar. Talabalar dasturda ko'rsatilgan sinovlar topshirish, ta'limning uchinchi bosqichidagi majburiy individual vazifalarini bajarganidan so'ng Davlat

attestatsiyasiga qo'yiladi. Attestatsiyada nutqiy faoliyat turlari bo'yicha dastur talablariga muvofik ingliz, fransuz, nemis tillarini amaliy o'zlashtirish darajasi tekshiriladi.

2.5 Yakuniy nazoratni tashkil qilish va mazmuni

Yakuniy nazorat har bir semestrning oxirida attestatsiya sifatida amalga oshiriladi. Talabalar imtihonga ta'limning uchinchi boqichida nazarda tutilgan sinov va individual vazifalarni bajargandan so'ng qo'yiladi. Xorijiy til bo'yicha imtihon o'quv rejasiga muvofik o'tkaziladi

Yakuniy nazorat mazmuni (davlat attestatsiyasi):

1. Mutaxassislik bo'yicha matn mazmunini tola va aniq tushinib o'qiy olishni tekshirish
Nazorat shakli: Matnni lug'at yordamida yozma tarjima qilish; matn xajmi 100-1200 bosma belgi - 45minut

2. Mutaxassislik bo'yicha original matnning mazmuni bilan tanishish maqsadida o'qishni bilislini tekshirish.

Nazorat shakli: Mutaxassislik bo'yicha matnda mavjud bo'lgan axborotni ona tili yoki o'r ganilayotgan tilda (og'zaki) yetkazishi matn xajmi 2000 bosma belgi, matnni o'qish uctiun vaqt 4 minut 3. Og'zaki muloqotda o'r ganilayotgan tilda ishtirok eta olishni tekshirish.